



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

**“YO‘QOTILGAN AVLOD” ADABIYOTIDA FRONT VA FRONT ORTIDAGI
AYOLLAR OBRAZINING IJTIMOYIY-RUHIY TALQINI: F. S. FITZGERALD VA E.
HEMINGUEY ASARLARI MISOLIDA**

Qodirova Muhabbat

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada F. Skott Fitzgeraldning “Buyuk Getsbi” (1925) va Ernest Hemingueyning “Alvido, Qurol” (1929) asarlarida ayol obrazlarining badiiy va ijtimoiy-ruhiy jihatlari tahlil qilinadi. Tarixiy-madaniy kontekstualizatsiya va gender tahlilini o‘z ichiga olgan qiyosiy metodologiya asosida tadqiqot Birinchi jahon urushidan keyingi davrda front hamda front ortida yashagan ayollarning ijtimoiy holati, ruhiy dunyosi va badiiy ifodalanishini yoritadi. Ikkala roman ham “Yo‘qotilgan avlod” adabiy an‘anasiga mansub bo‘lsa-da, ular ayollik obraziga tubdan farqli yondashuvlarni namoyon etadi: Fitzgerald o‘z ayol qahramonlarini ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ishlatib, urushdan keyingi Amerika jamiyatining ma’naviy inqirozini fosh etadi. Heminguey esa Catherine Barklini urush vayronasi fonida sevgi, fidoyilik va fojiali go‘zallikning timsoli sifatida yaratadi.

Kalit so‘zlar: Yo‘qotilgan avlod, ayol obrazi, “Buyuk Getsbi”, “Alvido, Qurol”, gender transformatsiyasi, urushlararo adabiyot, badiiy tasvir, qiyosiy adabiyotshunoslik, urush va gender.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИН НА
ФРОНТЕ И В ТЫЛУ В ЛИТЕРАТУРЕ «ПОТЕРЯННОГО ПОКОЛЕНИЯ» (НА
ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Ф. С. ФИЦДЖЕРАЛЬДА И Э. ХЕМИНГУЭЯ)**

Кодирова Мухаббат

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье проводится художественный и социально-психологический анализ женских образов в романах Ф. Скотта Фицджеральда «Великий Гэтсби» (1925) и Эрнеста Хемингуэя «Прощай, оружие!» (1929). На основе сравнительной методологии, включающей историко-культурную контекстуализацию и гендерный анализ, исследование рассматривает социальное положение, психологический мир и художественное воплощение женщин, живших на фронте и в тылу в послевоенный период Первой мировой войны. Оба романа принадлежат к литературной традиции «Потерянного поколения», однако демонстрируют принципиально различные подходы к образу женственности: Фицджеральд использует своих героинь как инструмент социальной критики, разоблачая духовный кризис послевоенного американского общества; Хемингуэй же создаёт образ Кэтрин Баркли как символ любви, самопожертвования и трагической красоты на фоне военных руин.

Ключевые слова: Потерянное поколение, женский образ, «Великий Гэтсби», «Прощай, оружие!», гендерная трансформация, литература межвоенного периода, художественное изображение, сравнительное литературоведение, война и гендер.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN ON
THE FRONT AND IN THE REAR IN THE LITERATURE OF THE “LOST
GENERATION” (BASED ON THE WORKS OF F. S. FITZGERALD AND E.
HEMINGWAY)**

Qodirova Muhabbat

Jizzakh State Pedagogical University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article presents an artistic and socio-psychological analysis of female images in F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby* (1925) and Ernest Hemingway's *A Farewell to Arms* (1929). Drawing on a comparative methodology that integrates historical-cultural contextualization and gender analysis, the study examines the social conditions, psychological world, and artistic representation of women who lived both at the front and behind the lines in the aftermath of the First World War. Although both novels belong to the literary tradition of the "Lost Generation," they reveal fundamentally different approaches to the image of femininity: Fitzgerald employs his female characters as instruments of social critique, exposing the moral crisis of post-war American society, while Hemingway constructs Catherine Barkley as a symbol of love, self-sacrifice, and tragic beauty set against the ruins of war.

Keywords: Lost Generation, female image, "The Great Gatsby", "A Farewell to Arms", gender transformation, interwar literature, artistic representation, comparative literary studies, war and gender.

"Yo'qotilgan avlod" adabiyoti bir necha muhim xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu adabiyotdagi psixologik chuqurlikdir. Birinchi jahon urushi millionlab odamlarning ruhiyatini sindirdi, ular jangda ko'rgan dahshat, yo'qotgan do'stlari va parchalangan umidlari ularning ichki dunyosini butunlay o'zgartirib yubordi. Bu yozuvchilar o'sha ruhiy jarohatni yashirishmadi, balki uni to'g'ridan-to'g'ri o'z asarlarida aks ettirishdi.

Ikkinchidan, bu adabiyot shakl jihatidan yangi edi. Urushdan oldingi yozuvchilar ko'pincha uzoq, chiroyli, bezakli jumlar ishlatardi. "Yo'qotilgan avlod" esa boshqacha yo'l tutdi. Heminguey, masalan, judayam qisqa va aniq jumlar bilan yozdi, hech qanday ortiqcha so'z yo'q, faqat zaruriyat. Fitzgerald esa aksincha, lirik, she'riy uslubda yozdi, lekin u ham yolg'on chiroyli tasvirlardan qochdi. Har ikki yozuvchi ham o'z uslubida urush sindirib tashlagan dunyoni aks ettirishning yangi yo'lini topdi.

Uchinchidan va eng muhimi bu adabiyot haqiqatni aytishdan qo'rqmadi. Urushdan keyingi davr adabiyotining ko'pchiligi "hammasi yaxshi tugadi", "qahramon g'olib chiqdi", "hayot davom etadi" degan yolg'on tasalli berardi. "Yo'qotilgan avlod" yozuvchilari bunga rad javob qaytardi. Ular urushning insonga nima qilganini, uning o'z-o'ziga ishonchini qanday sindirganini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni qanday izdan chiqarganini, avval muqaddas sanalgan qadriyatlarni qanday puchga chiqarganini yashirmasdan, to'g'ridan-to'g'ri yozdi. Ularning asarlari o'quvchiga oson emas edi, lekin u asarlar hayotning haqiqiy rangini ko'rsatdi.

Ushbu adabiyotning asosiy o'ziga xosliklaridan biri urushdan keyingi davrda ayollik identifikatsiyasini tasvirlashdir. Ayollik hislati va ayollik marginallashuvi o'rtasidagi bu ziddiyat "Yo'qotilgan avlod" nasrining eng kam o'rganilgan tomonlaridan biridir. Ushbu adabiyotning ayol qahramonlari kamdan-kam hollarda shunchaki dekorativ yoki ikkinchi darajali bo'ladi balki, ular har bir romanning mazmuni uchun markaziy bo'lgan ramziy va mafkuraviy tasvirni aks ettiradilar. Biroq ularga o'z hikoyalarining obyektlari emas, subyektlari qiluvchi mustaqil ichki olam kamdan-kam beriladi.

Ushbu maqolada biz ikkita Amerika adabiyoti namunasi bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazamiz: F. Skott Fitzgeraldning "Buyuk Getsbi" (1925) va Ernest Hemingueyning "Alvido, Qurol" (1929). Bir avlod vakillari tomonidan yaratilgan va atigi to'rt yil oralig'ida nashr etilgan bo'lsa-da, ikkala roman ham ayollik identifikatsiyasi masalasini badiiy tasavvurining markaziga qo'yadi, biroq ular asosan har xil adabiy va mafkuraviy maqsadlarni amalga oshiradi. Fitzgerald o'z ayol qahramonlari orqali urushdan keyingi Amerika ijtimoiy elitasining ma'naviy qashshoqligini tahlil qilsa, Italiya frontida qatnashgan va yaralangan veteran sifatida [2; p. 88] o'z

shaxsiy tajribasiga tayanuvchi Heminguey asosiy ayol timsolini zamonaviy urushning betartib va beayov olamiga qarshi fidoyilik, mehr va fojiali go'zallikning ramzi sifatida yaratadi.

Birinchi jahon urushi ayollar hayotida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga sabab bo'lib, ularni an'anaviy uy-ro'zg'or chegarasidan tashqariga olib chiqdi: millionlab ayollar fabrika va zavodlarda ishladi, front yaqinidagi gospitallarda hamshira bo'lib xizmat qildi, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va tashkilotchilik sohasida faol ishtirok etdi. Bu o'zgarishlar yolg'iz iqtisodiy ahamiyat kasb etmay, balki chuqur ruhiy va ijtimoiy burilish nuqtasiga aylandi: ayollar nafaqat yangi kasbiy rollarni o'zlashtirdilar, balki o'z qadr-qimmatini, imkoniyatlari va jamiyatdagi o'rnini haqidagi tasavvurlarini ham qayta ko'rib chiqdilar.

Front ortida vatanda qolgan ayollar esa urushning boshqa bir yuzini boshdan kechirdilar. Ular sevganlarini yo'qotish alamini, noaniqlik va kutish azobini his etdilar; urush tugagach esa qaytib kelgan, ammo ruhiy jihatdan butunlay o'zgarib qolgan erkaklar bilan qayta munosabat o'rnatish muammolariga duch keldilar. Shunday qilib, ayrim ayollar uchun urush erkinlik va o'z imkoniyatlarini ochish vositasiga aylangan bo'lsa, boshqalar uchun u yo'qotish, iztirob va yolg'izlikning manbaiga aylandi. "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti ayollarning ushbu ikki toifasini frontda xizmat qilganlarni ham, front ortida sabr-toqat bilan kutganlarni ham o'z ichiga olib, ularning har birini muallif badiiy niyatiga muvofiq talqin etadi.

Hemingueyning "Alvido, Qurol" romani front ham, front orti ham mavzularini birlashtiradi: Catherine Barkley ingliz hamshirasi sifatida urush frontida xizmat qiladi, lekin uning ichki olami va munosabati ko'proq front ortidagi ayolning ruhiyatini sevgan kishisini kutish, uning xavfsizligi uchun qo'rquv, va ular o'rtasidagi aloqani saqlab qolish istagi aks ettiradi. Fitzgerald asarida esa front bevosita tasvirlanmaydi, lekin uning soyasi Daisy va Jordan kabi urushdan keyingi Amerika ayollarining ruhiyati va xatti-harakatlarida doimo seziladi.

Metodologiya. Ushbu maqolaning metodologiyasi bir-birini to'ldiruvchi uchta tahliliy tizimni birlashtiradi. Har biri o'rganiladigan ayol qahramonlarning alohida tahlilini yoritish uchun tanlangan. Ushbu tahlilning metodologik asosi shundan iboratki, adabiy qahramonlar shunchaki xayoliy shaxslar emas, balki hikoya tanlovi, ramziy tizimlar va mafkuraviy investitsiyalar orqali ma'no ishlab chiqaruvchi badiiy qurilmalardir. Tahlil uch asosiy tizimga tayanadi.

Birinchi tizim - matnni yaqindan tahlil qilish. Ikkala romanning til, tuzilma va rasmiy xususiyatlarini ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish barcha talqiniy da'volar uchun tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu tizim narratorning so'z tanlovi, tasvirlar, fokalizatsiya, dialog va erkin bilvosita nutq kabi hikoya texnikalariga alohida e'tibor qaratadi.

Ikkinchi tizim - gender tahlil nazariyasi. Simon de Bovuar ayollikni biologik emas, balki madaniy tasvir sifatida talqin qiladi [6; p. 800]; Judith Butler esa genderni takroriy ijro orqali shakllanadigan holat deb ta'riflaydi [3; p. 17]. Bu yondashuv Deyzi va Katrin obrazlarini tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Sandra Gilbert va Susan Gubar esa patriarxal hikoyalarda ayol agentligining qanday bostirilib, ramziy markazda turib hikoya jihatidan chetga surib qo'yilishini ko'rsatadi [10; p. 719].

Uchinchi tizim - psixanalitik tanqid. Freyding o'lim instinkti nazariyasi travmatik tajribalarni majburiy takrorlash [9; p. 64] Getsbi, Genri va Katrin obrazlaridagi o'z-o'zini yo'q qiluvchi xatti-harakatlarni o'qishga imkon beradi. Keti Karutning travma nazariyasi esa Birinchi jahon urushini ikkala romanda ham shunchaki tarixiy fon emas, balki qahramon psixologiyasini chuqur shakllantiruvchi ko'rinmas kuch sifatida tahlil qilish vositasini taqdim etadi [5; p. 154].

Tahlil va natijalar. Ikkala roman ham Birinchi jahon urushining oqibatlari bilan shakllantirilgan, garchi bu shakllantirish tabiati va darajasi ular orasida sezilarli farq qilsa-da. "Buyuk Getsbi"da urush asosan yashirin mavjudlikdir: u romanning ijtimoiy dunyosini belgilovchi urushdan keyingi farovonlik va axloqiy dezorientatsiya sharoitlarini yaratdi, lekin bevosita kamdan-kam ko'rib chiqiladi. Uning eng muhim izi erkak qahramonlarga Getsbi harbiy xizmati uning ambitsiyasining ham, u kirmoqchi bo'lgan ijtimoiy dunyodan doimiy ajralishining ham manbai sifatida va romanning Amerika javobini ifodalagan bo'rtirilgan oshiqlik va axloqiy

bo'shlik keng madaniy muhitiga yetkazilgan psixologik zararidir.

“Alvido, Qurol”da esa urush aniq va to'g'ridan-to'g'ri mavzudir. Birinchi jahon urushi davridagi Italiya frontida va uning bevosita oqibatlari natijasida yaratilgan roman Leytenant Frederik Genrining burch, vatanparvarlik va ijtimoiy majburiyatdan bosqichma-bosqich uzilib qolishini taqdim etadi. Bu jarayon romanda mavjud bo'lgan yagona yaxlitlik shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Fitzgerald ikkita asosiy ayol timsolini taqdim etadi, ularning qarama-qarshi fazilatları 1920-yillar Amerika ayolliгинing ziddiyatlarını aks ettiradi. Deyzi Buchanan Amerika adabiyotidagi eng badiiy murakkab ayol qahramonlardan biridir. U katta divanda yotgan holda, oq kiyingan va go'yoki yerga tegmay uchib yurayotgandek ko'rinadigan birinchi ko'rinishdan boshlab, Fitzgerald tomonidan go'zallik tasviri, ham haqiqiy, ham soxta ayollik bilan bog'lanadi [8; p. 180]. U butun roman davomida oq rang atrofida qurilgan zich ramziy tarmoq orqali bog'lanadi. Bu oqlik doimiy ravishda buzqlik va axloqiy befarqlikni yashiruvchi yuzaki toza sifatida ochiladi.

Deyziga nisbatan feministik talqinlar uni patriarxal ijtimoiy tuzilmalarning qurboni sifatida ko'rsatishda asosli, biroq bu yondashuv obrazning to'liq murakkabligini qamrab olmaydi. [12; p. 406]. Deyzi shunchaki passiv qahramon emas: u ongli tanlovlar qilgan qahramon sifatida shakllantirilgan, ya'ni u Tomga turmushga chiqqan, Getsbi bilan munosabatga kirishgan va baxtsiz hodisa joyini tark etgan. Fitzgeraldning yutug'i shundaki, u Deyzini bir vaqtning o'zida ham jabrdiyda, ham aybdor sifatida tasvirlaydi.

Jordan Beyker mustaqil, professional va o'ziga ishongan ayol obrazini ifodalaydi. Biroq Fitzgerald uni ham tanqidiy ko'rsatadi: Jordanning yolg'onchiligi va hissiy sovuqligi uning axloqsiz ravishda tanlagan ozodligini tasvirlaydi.

Katrin Barkli esa butunlay boshqacha obraz bo'lib, u kuchli feminist tanqidga sabab bo'lgan. Uning kuyovi urushda halok bo'lgan, Genri bilan sevgisi esa boshidanoq yo'qolish xavfi ostida rivojlanadi. Uning mashhur so'zlari: “sevgimdan boshqa hech narsam yo'q” feminist tadqiqotchilar tomonidan ayollikning eng muammoli tasvirlaridan biri sifatida baholangan [4; p. 215].

Biroq Katrinni faqat ojiz qahramon deb bo'lmaydi. Uning o'zini sevgiga bag'ishlashi passiv taslimiyat emas, balki ongli tanlovdir, urush barcha ma'no va qadriyatlarni vayron qilgan dunyoda sevgi va insoniy yaqinlik yagona haqiqiy tayanch bo'lib qoladi, va Katrin buni to'liq anglab, shu yo'lni tanlaydi. Shu nuqtai nazardan, uning sadoqati zaiflik emas, balki jasoratdir. Katrin romanda ulug'lanadigan, ammo tug'ish chog'idagi fojiviy o'lim bilan yakun topadigan fidoyilik timsoliga aylanadi. [1; p. 246].

Ikkala romanni solishtirganda asosiy farq shundaki, Fitzgeraldning ayollari jamiyatni tanqid qilish vositasi bo'lsa, Hemingueyning Katrini sevgini yagona ma'no manbayi va ayni paytda uning imkonsizligi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. “Buyuk Getsbi” va “Alvido, Qurol” asarlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ikkala roman ham ayollik identifikatsiyasi masalasini badiiy jihatdan chuqur va mafkuraviy jihatdan muhim tarzda ko'taradi. Biroq ikkala muallif bu masalaga turli yo'ldan yondashadi, har biri o'z estetik falsafasi va shaxsiy tajribasiga tayanadi.

Fitzgeraldning ayol qahramonlari Deyzi va Jordan asosan ijtimoiy tanqid vositasidir. Ular 1920-yillar Amerika jamiyatining axloqiy inqirozini gavdalantiradi. Fitzgerald ularni na sentimental, na oddiy hamdardlik uyg'otadigan tarzda tasvirlaydi. U ularni bir vaqtning o'zida ham jabrdiyda, ham o'sha jamiyatning sherigiga aylantiradi.

Hemingueyning Katrini esa boshqacha vazifa bajaradi: u urush vayron qilgan dunyoda sevgi va insoniy yaqinlikning mo'rt imkoniyatini ifodalaydi. Uning o'limi romanning asosiy g'oyasini tasdiqlaydi ya'ni eng qimmatli narsalar yo'qolishga moyil bo'ladi. Shu bilan birga, feminist tanqid bilan ta'kidlanganidek, Katrin obrazi muammoli bo'lib qolaveradi: u o'z identifikatsiyasini sevgiga to'liq eritadi va bu Hemingueyning ayollik tasavvuridagi cheklovlarni

aks ettiradi.

Tahlil ikkala romanda uchta umumiy badiiy usulni aniqladi: ayol obrazlarni kattaroq ramziy ma'nolar bilan yuklash, ayol timsollar orqali urushdan keyingi jamiyatning ziddiyatlarini ko'rsatish va o'sha davrda ayollikning o'zgarishi masalasini badiiy jihatdan o'rganish. Asosiy farq esa shundaki, Fitzgeraldda ayol qahramonlar ijtimoiy tanqid vositasi bo'lsa, Hemingueyda ular mavjudiyat haqidagi chuqur mulohazaning ramziga aylanadi.

Eng muhim xulosa esa shundaki, ikkala romanda ham ayol qahramonlar qanchalik murakkab tasvirlangan bo'lsin oxir-oqibat muallifning kattaroq badiiy maqsadlariga xizmat qiladi. Ularning ichki dunyosi tanlab va vositali ravishda beriladi. Bu nafaqat mahorat balki, bu o'sha davr adabiy va mafkuraviy ufqlarining aksidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brooks, P. *The Melodramatic Imagination: Balzac, Henry James, Melodrama, and the Mode of Excess.* — New Haven: Yale University Press, 1976. — 246 p.
2. Reynolds, M. *Hemingway: The Paris Years.* — Oxford: Blackwell, 1989. — 402 p.
3. Butler J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity.* — New York: Routledge, 1990. — P. 3–17.
4. Comley, N. R., Scholes, R. *Hemingway's Genders: Rereading the Hemingway Text.* — New Haven: Yale University Press, 1994. — 215 p.
5. Caruth, C. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History.* — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996. — 154 p.
6. de Beauvoir, S. *The Second Sex / Translated by C. Borde, S. Malovany-Chevallier.* — New York: Vintage, 1949/2010. — 800 p.
7. Fetterley, J. *The Resisting Reader: A Feminist Approach to American Fiction.* — Bloomington: Indiana University Press, 1978. — 190 p.
8. Fitzgerald, F. S. *The Great Gatsby.* — New York: Scribner, 1925/2004. — 180 p.
9. Freud, S. *Beyond the Pleasure Principle // Standard Edition of the Complete Psychological Works of Sigmund Freud / Ed. J. Strachey.* — Vol. 18. — London: Hogarth Press, 1955. — P. 64.
10. Gilbert, S. M., Gubar, S. *The Madwoman in the Attic.* — New Haven: Yale University Press, 1979. — 719 p.
11. Hemingway, E. *The Sun Also Rises.* — New York: Scribner, 1926.
12. Hemingway, E. *A Farewell to Arms.* — New York: Scribner, 1929/2012. — 332 p.
13. Showalter, E. *Sister's Choice: Tradition and Change in American Women's Writing.* — Oxford: Oxford University Press, 1991. — 195 p.